

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoligova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQARISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	



MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Saydullayev Nodirbek Narzullaevich

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank raisining birinchi o'rinbosari
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada markaziy bankning kurs siyosati samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari kompleks yondashuv asosida tadqiq etilgan. Valyuta kursi rejimlarining transformatsiyasi, inflyatsion targetlash sharoitida kurs kanalining monetar transmissiya mexanizmidagi o'rni hamda ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda kurs siyosati samaradorligi valyuta intervensiyalari strategiyasi, foiz stavkasi differensial, kapital oqimlari barqarorligi, iqtisodiy kutilmalarni boshqarish sifati va valyuta kursining inflyatsiyaga uzatilish darajasi kabi omillar bilan o'zaro bog'liqlikda baholangan. Shuningdek, kurs siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari sifatida kommunikatsion shaffoflikni kuchaytirish, makroprudensial instrumentlarni integratsiyalash, xalqaro zaxiralarni oqilona boshqarish hamda raqamli prognozlash modellarini joriy etishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va markaziy bank siyosatining institutsional samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: markaziy bank, kurs siyosati, valyuta kursi rejimi, inflyatsion targetlash, monetar transmissiya mexanizmi, valyuta intervensiyasi, makroprudensial siyosat, valyuta kursining inflyatsiyaga uzatilishi.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for improving the effectiveness of central bank exchange rate policy through a comprehensive approach. The transformation of exchange rate regimes, the role of the exchange rate channel in the monetary transmission mechanism under inflation targeting, and its significance in ensuring macroeconomic stability in an open economy are scientifically substantiated. The effectiveness of exchange rate policy is evaluated in relation to several key factors, including the strategy of foreign exchange interventions, interest rate differentials, the stability of capital flows, the quality of expectations management, and the degree of exchange rate pass-through to inflation. Furthermore, the study highlights the importance of enhancing communication transparency, integrating macroprudential instruments, rationally managing international reserves, and implementing digital forecasting models as key directions for improving exchange rate policy. The results contribute to the development of scientific and practical conclusions aimed at strengthening national currency stability and improving the institutional effectiveness of central bank policy.

Key words: central bank, exchange rate policy, exchange rate regime, inflation targeting, monetary transmission mechanism, foreign exchange intervention, macroprudential policy, exchange rate pass-through to inflation.

Аннотация. В данной статье на основе комплексного подхода исследуются теоретико-методологические основы и практические механизмы повышения эффективности валютно-курсовой политики центрального банка. Научно обоснована трансформация режимов валютного курса, роль курсового канала в механизме монетарной трансмиссии в условиях инфляционного таргетирования, а также его значение в обеспечении макроэкономической стабильности в условиях открытой экономики. В исследовании эффективность курсовой политики оценивается во взаимосвязи с такими факторами, как стратегия валютных интервенций, дифференциал процентных ставок, устойчивость потоков капитала, качество управления экономическими ожиданиями и степень передачи изменений валютного курса в инфляцию. Кроме того, обоснована необходимость совершенствования курсовой политики посредством усиления коммуникационной прозрачности, интеграции макроprudенциальных инструментов, рационального управления международными резервами и внедрения цифровых моделей прогнозирования. Результаты исследования способствуют формированию научно-практических выводов, направленных на обеспечение стабильности национальной валюты и повышение институциональной эффективности политики центрального банка.

Ключевые слова: центральный банк, валютно-курсовая политика, режим валютного курса, инфляционное таргетирование, механизм монетарной трансмиссии, валютные интервенции, макроprudенциальная политика, передача валютного курса в инфляцию.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida markaziy bankning kurs siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy monetar instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Valyuta kursi dinamikasi tashqi savdo operatsiyalarining hajmi va tarkibiga, kapital oqimlari yo'nalishiga, to'lov balansi muvozanatiga hamda ichki narxlar darajasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan u iqtisodiy o'sish sur'atlari, investitsion faollik va biznes muhiti barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kurs siyosati mexanizmlarining samarali ishlashi milliy valyutaga bo'lgan ishonch darajasi, inflyatsion kutilmalar barqarorligi hamda moliyaviy tizim likvidligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, pul-kredit siyosatining asosiy maqsadli ko'rsatkichlaridan biri sifatida inflyatsiya darajasini boshqarish ustuvor vazifa etib belgilangan sharoitda valyuta kursi kanalining monetar transmissiya mexanizmidagi roli yanada ortadi. Shu sababli kurs siyosati samaradorligini oshirish masalasi markaziy bank faoliyatini institutsional va metodologik jihatdan takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro moliyaviy bozorlar integratsiyasining kengayishi hamda kapital harakatining nisbatan erkinlashuvi kurs siyosatiga qo'yiladigan talablarni yanada murakkablashtirmoqda. Tashqi savdo hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy sikllar, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi, global foiz stavkalari dinamikasi hamda geoiqtisodiy omillar milliy valyuta kursiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda kursning keskin tebranishlari inflyatsion jarayonlarning jadallashuviga, moliyaviy risklarning ortishiga va iqtisodiy subyektlarning uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatlarining qisqarishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Natijada markaziy bank oldida valyuta bozorida muvozanatni ta'minlash bilan birga bozor mexanizmlarining samarali ishlashini qo'llab-quvvatlash vazifasi yuzaga keladi. Bu esa kurs siyosatini amalga oshirishda intervensiya strategiyasi, foiz stavkasi siyosati va makroprudensial instrumentlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan holda qo'llanilishini talab etadi.

Kurs siyosati samaradorligi ko'p omilli va tizimli xarakterga ega bo'lib, uni faqat nominal kurs barqarorligi orqali baholash yetarli emas. Uning real sektor raqobatbardoshligiga ta'siri, inflyatsiyaga uzatilish darajasi, kapital oqimlari barqarorligi hamda xalqaro zaxiralar yetariligi bilan o'zaro bog'liqligi kompleks tahlilni talab qiladi. Shu bilan birga, markaziy bankning kommunikatsiya siyosati, bozor ishtirokchilari kutilmalarini boshqarish sifati hamda institutsional mustaqillik darajasi kurs siyosatining natijadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarni ilmiy asosda baholash va ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash kurs siyosatini takomillashtirish bo'yicha aniq metodologik xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi markaziy bank kurs siyosati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tizimlashtirish, amaliy mexanizmlarini tahlil qilish hamda institutsional takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida kurs siyosatining monetar transmissiya tizimidagi o'rni, intervensiya instrumentlarining samaradorligi hamda kutilmalarni boshqarish mexanizmlarining ahamiyati kompleks yondashuv asosida o'rganiladi. Shu tariqa, olib borilgan ilmiy tahlil natijalari milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Markaziy bank kurs siyosati samaradorligi masalasi zamonaviy makroiqtisodiy adabiyotlarda keng qamrovli va ko'p qirrali ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Ushbu muammo doirasida valyuta kursi rejimlari evolyutsiyasi, monetar transmissiya mexanizmi, kapital harakatining erkinligi hamda makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari chuqur tahlil qilingan. Nazariy jihatdan kurs siyosati asoslari ochiq iqtisodiyot modellari orqali rivojlantirilgan bo'lib, ayniqsa Robert Mundell va Marcus Fleming tomonidan ishlab chiqilgan model valyuta kursi rejimi, foiz stavkasi va kapital oqimlari o'rtasidagi muvozanatni tushuntirib beruvchi fundamental yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Mazkur model asosida keyinchalik erkin suzuvchi va qat'iy belgilangan kurs rejimlarining afzalliklari hamda cheklovlari yuzasidan keng ko'lamli ilmiy munozaralar shakllangan. Ushbu nazariy platforma kurs siyosati samaradorligini baholashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Monetar siyosat va valyuta kursi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalari Michael Woodford, Frederic Mishkin va Lars Svensson kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali yanada chuqurlashtirilgan. Frederic Mishkin inflyatsion targetlash rejimida markaziy bank ishonchliligi va kommunikatsiya shaffofligining valyuta bozori barqarorligiga ta'sirini empirik dalillar asosida asoslab bergan. Lars Svensson optimal monetar siyosat qoidalari hamda kurs dinamikasini modellashtirish orqali foiz stavkasi kanali va kutilmalar mexanizmining o'zaro ta'sirini izohlagan. Michael Woodford tomonidan ishlab chiqilgan yangi keynscha model esa valyuta kursi o'zgarishlarining real sektor va narxlar darajasiga uzatilish mexanizmini nazariy jihatdan asoslaydi. Ushbu yondashuvlar kurs siyosatini mustaqil instrument sifatida emas, balki pul-kredit siyosatining integratsiyalashgan tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.



Valyuta kursining inflyatsiyaga uzatilish darajasi hamda tashqi shoklarning ichki iqtisodiyotga ta'siri masalalari John B. Taylor, Guillermo Calvo va Carmen Reinhart tomonidan keng tadqiq qilingan. Ular rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kurs tebranishlari narxlar darajasiga nisbatan yuqori sezgirlikka ega ekanligini empirik ma'lumotlar asosida ko'rsatganlar. Maurice Obstfeld va Kenneth Rogoff esa xalqaro moliyaviy integratsiya sharoitida erkin suzuvchi kurs rejimining makroiqtisodiy moslashuvchanlikni oshirishdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilgan. Ularning ilmiy ishlari kapital oqimlarining beqarorligi, tashqi savdo nomutanosibligi hamda moliyaviy inqirozlar sharoitida kurs siyosatining moslashuvchanligini ta'minlash zaruratini asoslab beradi. Bu tadqiqotlar kurs siyosati samaradorligini baholashda tashqi omillarni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi.

Markaziy bank intervensiyalari va xalqaro zaxiralarni boshqarish samaradorligi masalalari Stanley Fischer, Olivier Blanchard va Barry Eichengreen ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Stanley Fischer rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta intervensiyalarining qisqa muddatli barqarorlashtiruvchi ta'sirini asoslab bergan. Olivier Blanchard makroiqtisodiy siyosatning tashqi shoklarga moslashuvchanligini kengroq tizimli yondashuv asosida tahlil qilgan. Barry Eichengreen esa tarixiy tajriba asosida valyuta inqirozlarining sabablari va kurs siyosatida institutsional mustaqillikning ahamiyatini yoritib bergan. Ularning tadqiqotlari kurs siyosati samaradorligi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham kurs siyosati va valyuta liberallashtirish masalalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. S. G'ulomov, B. Berkinov, Q. Abdurahmonov, Sh. Shodmonov va A. Vahobovlarning ilmiy ishlari milliy iqtisodiyot sharoitida pul-kredit siyosati hamda valyuta barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladi. Ular tomonidan valyuta kursining real sektor raqobatbardoshligiga, tashqi savdo balansiga hamda inflyatsion jarayonlarga ta'siri tizimli ravishda yoritilgan. So'nggi yillarda valyuta liberallashtirish jarayonlarini o'rganishda I. Norqulov, M. Xolmamatov va boshqa tadqiqotchilar kurs shakllanish mexanizmlarining institutsional asoslari hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu tadqiqotlar milliy iqtisodiyot sharoitida kurs siyosatini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kurs siyosati samaradorligini baholash ko'pincha alohida omillar kesimida amalga oshirilgan bo'lib, monetar, makroprudensial va kommunikatsion instrumentlarning o'zaro uyg'unligi yetarli darajada kompleks yondashuv asosida o'rganilmagan. Ayniqsa, inflyatsion targetlash sharoitida kurs siyosatining institutsional mustahkamligi, kutilmalarni boshqarish mexanizmi hamda raqamli prognozlash vositalari integratsiyasining samaradorlikka ta'siri masalalari yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur holat ushbu maqolada kurs siyosati samaradorligini oshirish usullarini tizimli va integratsiyalashgan konseptual yondashuv asosida tahlil qilish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda markaziy bank kurs siyosati samaradorligini baholash va uni oshirish usullarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va empirik tahlil uyg'unligiga asoslanib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, monetar instrumentlar samaradorligi hamda valyuta bozori mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini tizimli ravishda o'rganishga qaratildi. Metodologik asos sifatida ochiq iqtisodiyot nazariyasi, monetar transmissiya mexanizmi konsepsiyasi hamda inflyatsion targetlash modeli qabul qilindi. Kurs siyosati samaradorligi ko'p omilli jarayon sifatida talqin qilinib, uni baholashda institutsional, makroiqtisodiy va bozor omillarining o'zaro ta'siri inobatga olindi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-statistik usullar qo'llanildi. Valyuta kursi dinamikasi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda korrelyatsion hamda regressiya tahlili elementlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, kursning inflyatsiyaga uzatilish darajasini baholashda pass-through koeffitsientlarini hisoblash metodikasi qo'llanildi. Foiz stavkasi differensial, kapital oqimlari hamda xalqaro zaxiralar o'zgarishi kabi ko'rsatkichlarning kurs barqarorligiga ta'siri ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilindi. Bu yondashuv kurs siyosati samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash imkonini yaratadi.

Metodologiyada, shuningdek, qiyosiy-institutsional tahlil usuli ham qo'llanildi. Unda turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan kurs rejimlari, intervensiya strategiyalari hamda kommunikatsiya siyosatlari o'zaro solishtirildi va ularning natijadorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan samarali mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi. Xalqaro tajriba va milliy amaliyot o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, institutsional moslashuv darajasi baholandi. Tadqiqotning empirik bazasini rasmiy statistik ma'lumotlar, markaziy bank hisobotlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlari hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi tashkil etadi. Ma'lumotlar vaqt qatori ko'rinishida tahlil qilinib, strukturaviy o'zgarishlar va tashqi shoklarning ta'siri aniqlashtirildi. Dinamik qatorlar asosida trend va siklik komponentlar ajratildi hamda kurs tebranishlarining inflyatsion jarayonlarga ta'siri baholandi. Mazkur metodologik yondashuv kurs siyosati samaradorligini qisqa va o'rta muddatli kesimda aniqlash imkonini beradi.



Shu tariqa, qo'llanilgan metodologiya markaziy bank kurs siyosatini nazariy asoslar, empirik dalillar hamda institutsional omillar uyg'unligida kompleks baholashga xizmat qiladi. Tanlangan usullar kurs siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniqlash, uning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish hamda amaliy takliflar shakllantirish uchun zarur ilmiy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

